

“Avesto”da ilgari surilgan axloqiy fazilatlar

Sobirov Ramazon Ikrom o'g'li
Soliyev Temurbek Ixtiyor o'g'li
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” hamda unda ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga doir fikr-mulohazalar, ularni hozirgi zamon yoshlariga tadbiq qilish haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Zardusht, “Avesto” asari, ta’lim-tarbiya, zardushtiylik, unsur, qonun-qoida, insoniylik, kamolot

Moral qualities promoted in “Avesta”

Sobirov Ramazan Ikram oglu
Soliyev Temurbek Ikhtiyor oglu
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after
Alisher Navoi

Abstract: This article talks about the holy book of Zoroastrian religion "Avesta" and the opinions on education put forward in it, and their application to the youth of today.

Keywords: Zoroastrianism, “Avesta” work, education, Zoroastrianism, element, law and order, humanity, maturity

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” hisoblanadi. Zardushtiylik dini haqida aytib o’tadigan bo’lsak, dinga uning asoschisi Zardushtning nomi berilganligi uchun “Zardushtiylik” deya atalgan. Zardusht dinida asosan dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bu xislatlar yillar va asrlar davomida bir biriga qarshi kurashib kelmoqda. Insonning qaysi yo’ldan ketishi o’ziga bog’liq. Bu ikki xislatni ajrata olishda, oq va qorani tanishda ko’p narsani ko’rgan hayoti davomida boshidan kechgan bo’lishi va o’ziga kerakli oqilona yo’lni tanlagan bo’lishi kerak. Shuning uchun ham ikki xislatdan birini tanlashda iymon, vijdonini kuchli qilish zarur. Iymon va vijdonning zaifligi tufayli inson qarorni to’g’ri qabul qila olmay, yomonlik tarafga o’tib ketishi mumkin. Yani og’zi berk ko’chaga kirib chiqa olmay qolishi mumkin. Bu ham ta’lim tarbiyaning qanchalik yaxshi berilganligidan dalolat beradi.

“Avesto” insonni kamolotga yetaklovchi, kishini insoniylik, mehnatsevarlik, ezigulik, soflikka chorlovchi kitob hisoblanadi. “Avesto”da sahovatpeshalikning belgisi

- mehnatsevarlik, ishyoqmaslik esa barcha nuqsonlarning asosiy sababi deb aytib o'tilgan. "Avesto" so'zi "qat'iy qonun-qoidalar" degan ma'noni anglatadi hamda ushbu kitobda zardushtiylik dinining qonun-qoidalari keltirib, tushuntirilib o'tilgan.

"Avesto"da ta'lim tarbiya oid fikr va qarashlari ham mavjud. "Avesto"ni tashkil etuvchi tushuncha, xislatlar, yo'l-yo'riqlar, xulosalar, insonning axloqiy fazilatlarini davlatning ijtimoiy-siyosiy qudratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Yani bir bor davlatni yuklashida, gullab yashnashida xalqining birdamligi, mustahkamligi, bosh chiqarishi orqali bu natijaga, muvaffaqiyatga erishish mumkin.

"Avesto"da yana bir xislatga alohida e'tibor qaratilgan. Yani bu inson shaxsining kamolatga erishishga oid fikrlari mavjud. Bundan nimani bilishimiz mumkin? Insonning kamoloti yani o'z fikr va mulohazalariga, nutqiga, o'y-qarashlariga ega bo'lgan insonni tushunamiz. Albatta har bir inson shaxs kamolotiga erishmagan bo'lishi mumkin. Bu esa ko'p narsalardan mahrum bo'lishini ko'rsatadi. Fikrlarni yetkaza bera olmasligi, bildira olmasligi, fikrlariga ishonchsizligi tufayli yomonlik tarafga og'ib ketishi kimdurlarning fikrlariga, gap so'zlariga qo'shib ketish orqali yuzaga keladi. Ko'p yutuqlarga erisha olmasligi davlatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha olmasligi mumkin. Zardushtiylik dinining asosini to'g'rilik bilan yashash, axloqiy fazilatlar bilan muloqotda bo'lishni tashkil etadi. Bu esa ta'lim tarbiyaga juda bog'liq hisoblanadi. Har bir inson kun davomida muloqotda bo'ladi. Har xil xarakterli insonlarni ko'radi, suhbatlashadi. Agar insonda axloqiy fazilatlar rivojlanmagan bo'lsa, insonlar bilan chiqisha olmaydi, muloqotda bo'la olmasligi mumkin. Zardushtiylik dinida hayvonlarga zulm o'tkazish katta gunoh hisoblangan. Yani hayvonlarga ozor berishmagan va berilishiga ham yo'l qo'yilmagan. Zardusht tomonidan ilgari surilgan yo'l-yo'riqlarni bajarish muqaddas burch, mas'uliyat hisoblangan. Zardusht nisbatan behurmatlik qilmasdan barcha aytganlarni so'zsiz qilishgan va bajarishgan.

Zardushtiylik dinida to'rt unsur muqaddas sanaladi. Ular olov, yer, suv hamda havo sanaladi. Zardushtiylik dinining asosini ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tashkil qiladi. Darhaqiqat, zardushtiylik dini insonni eng avvalo ezgulikka boshlaydi.

Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Avesto" haqida shunday degan: "Eng mo'tabar qadimgi qo'lyozmalar "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti, bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan merosidir". Avesto sof diniy kitob bo'lmagan. Unda ijtimoiy, ma'naviy, falsafiy, tarixiy va yana boshqa sohalarda fikrlar yuritilgan.

"Yaxshi fikr" iborasi ostida insonlarga yaxshi munosabat, g'amxo'rlik, insonlarga nisbatan doimo yaxshilikda bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish kabi his-tuyg'ular, xislatlar yotadi. Bu his-tuyg'ular bilan inson boshqa bir insonning ko'nglini olishi mumkin. Shu kabi xislatlar insonda qanchalik ta'lim tarbiyaning rivojlanganligidan

dalolat beradi. "Avesto" ta'lim tarbiyaga oid fikrlari yani insonlar yovuzlik va ezgulikni ajrata olishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu orqali inson mukammal bo'la olishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T."Sano standartart" nashiriyoti. 2017;
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., Sharq, 1998;
3. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001;
4. «Avesto»dan (tarj. M. Ishoqov). O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999;
5. Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.-T.:1969;
6. Abu Bahr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: 1966A;
7. Qayumov. Qadimiyat obidalar. – T.: 1971;
8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE In Conference Proceedings (pp. 41-43);
9. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6);
10. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
11. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress;
12. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622;
13. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
14. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6);
15. Do'Stmurodov, S., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA XVI-XVIII ASRLARDA HINDISTONNI O'RGANISH. Scientific progress, 1(6);
16. Mengboyev, S. N., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA URARTU PODSHOLIGINING O'RNI. Scientific progress, 1(6);
17. Asqarov, N. S. O., & Haydarov, S. (2021). ARAB XALIFALIGINING POYTAXTI BAG'DODNING TANAZZULGA YUZ TUTISHI. Scientific progress, 1(6);

18. Ro'Zmetov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIXNI O'RGANISHDA SOSONIYLAR DAVLATINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6);
19. Raxmonova, M. (2022). "AVESTO" DA TA'LIM-TARBIYAGA OID FIKRLAR. Scientific progress, 3(4), 1146-1149.
20. A. Zunnunov, pedagogika tarixi, "Sharq" nashriyoti, Toshkent-2004.